



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

EXPECTED DURATION OF EDUCATION

HRM LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C

STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMIC

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION

DURATION OF EDUCATION

LIFE EXPECTANCY HEALTH

HRM HUMAN CAPITAL

HUMAN CAPITAL INDEX

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

LABOUR LABOR ECONOMICS LIFE EXPECTA

LIFE EXPECTANCY 2025-yil 2-son QUAL

HUMAN CAPITAL Volume 4, Issue 2, 2025 HUMA

QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION

HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL INDEX QUALIT



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
№ 2-2025

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan

www.laboreconomics.uz

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

A.B.Xayitov	<i>Aholining o'zini o'zi ish bilan band qilishi: tahlil va natijalar</i>	5-12
N.R.Saidov	<i>Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror ish o'rinxlarini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari</i>	13-19
Sh.R.Fayziyeva	<i>Влияние государственно-частного партнёрства на занятость: экономический анализ</i>	20-25
B.Z.Ganiyev	<i>Labor productivity in Uzbekistan: challenges and opportunities</i>	26-32
B.Sh.Raxmonov		
G.T.Umarova	<i>Mintaqa aholisi ish bilan bandligi: turlari va takibi, ta'sir etuvchi omillar tahlili</i>	33-40

DEMOGRAFIYA

N.B.Tula	<i>Анализ взаимосвязи демографического развития и управлеченческих подходов в условиях урбанизации</i>	41-52
-----------------	---	-------

INSON KAPITALI

I.A.Bakiyeva	<i>Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining ta'lif tizimida tadbirkorlik faoliyatiga kasbiy tayyorlash tajribalari</i>	53-65
K.A.Abdukadirova	<i>O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif xizmatlari bozorida raqobatni rivojlanishi xususiyatlari</i>	66-73
F.A.Doniyorova	<i>Человеческий капитал как стратегический ресурс устойчивого развития: опыт Узбекистана</i>	74-85
F.M.Talipov	<i>Самостоятельная работа студентов по физике и формирование человеческого капитала</i>	86-91

INSON TARAQQIYOTI

D.I.Iskandarova	<i>Aholi turmush darajasi va farovonligini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlari</i>	92-100
------------------------	---	--------

MIGRATSIYA

Z.T.Jumanova	<i>Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili</i>	101-109
---------------------	--	---------

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S.I.Mamurov
I.E.Saparova

HRM va raqamlashtirish: zamonaviy yondashuvlar va imkoniyatlar 110-121

Z.B.Ro'zibayeva

Turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining roli: nazariya va amaliyot uyg'unligi 122-128

X.O.Botirova

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari 129-140

F.A.Ibragimova
U.J.Djurayev
M.D.Raxmatova

Tadbirkorlik faoliyatida menejment va marketing strategiyalarining o'rni 141-149

D.I.Otaboyeva

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanish holati va maqsadli ko'rsatkichlari tahlili 150-156

GENDER TENGLIGI

B.Z.Ganiyev
O.U.Dilmurotova

Women in the workforce: unlocking Uzbekistan's productivity potential 157-165



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИСОН КАПИТАЛИ**
ISSN: 3030-3117
<https://laboreconomics.uz/>



**TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA INSON RESURSLARINING
RO'LI: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI**

Ro'zibayeva Zulayxo Baxrombek qizi

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a183

Annotatsiya: Maqolada turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda inson resurslarining strategik o'rni tahlil qilinadi. Muallif milliy va xorijiy tajribalarni solishtirgan holda, O'zbekistonda bu yo'naliishda mavjud muammolar va imkoniyatlarni yoritadi. Tahlillarda zamонавиј malakali kadrlar tayyorlash, ularni qayta o'qitish va jalb etish tizimining samaradorligi baholanadi. Maqolada amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: turizm, inson resurslari, bandlik, kadrlar siyosati, xizmat sifati, raqobatbardoshlik.

**РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ
ИНДУСТРИИ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Рузибаева Зулайхо Баҳромбек кизи

Преподаватель в Университете науки и технологий

Аннотация: В статье анализируется стратегическая роль человеческих ресурсов в повышении конкурентоспособности туристической отрасли. Автор сравнивает национальный и международный опыт, освещая существующие проблемы и возможности в Узбекистане в данной сфере. Оценивается эффективность систем подготовки, переподготовки и привлечения квалифицированных кадров. В заключение предложены практические рекомендации по развитию сектора.

Ключевые слова: туризм, человеческие ресурсы, занятость, кадровая политика, качество обслуживания, конкурентоспособность.

**THE ROLE OF HUMAN RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF THE
TOURISM INDUSTRY: THEORY AND PRACTICE**

Ruzibaeva Zulaykho Bakhrombek kizi

Teacher at the University of Science and Technologies

Abstract. The article analyzes the strategic role of human resources in increasing the competitiveness of the tourism industry. The author compares national and international experiences to highlight the current challenges and opportunities in Uzbekistan in this field. The study evaluates the effectiveness of systems for training, retraining, and attracting modern qualified personnel. Practical recommendations are proposed to enhance the sector's development.

Keywords: tourism, human resources, employment, personnel policy, service quality, competitiveness.

Kirish

XXI asrda turizm sanoati global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, turizm hozirgi kunda dunyodagi har to‘rtinchi ish o‘rnini yaratmoqda va umumiyligi ichki mahsulotning 10 foizidan ortig‘ini shakllantirmoqda. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sifati va mijoz ehtiyojlarini qondirish darajasi bevosita inson resurslarining salohiyati bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli bugungi kunda turizmda inson kapitaliga sarmoya kiritish eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida turizmni iqtisodiy o‘sishning drayveri sifatida rivojlantirish, bu borada xizmatlar sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish belgilab berilgan [1].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni modernizatsiya qilish, yangi yo‘nalishlar – ekologik, agroturizm, sog‘lomlashtirish va ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu jarayonda malakali inson resurslarining yetishmasligi, mavjud kadrlar salohiyatining pastligi, zamonaviy xizmat ko‘rsatish standartlariga mos bo‘lmagan yondashuvlar jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining o‘rni mavzusi bugungi kunda dolzarbli hisoblanadi. Chunki bu sohaga xos bo‘lgan yuqori tezlikda o‘zgarayotgan talab va ehtiyojlar, xizmat ko‘rsatishdagi kreativlik va moslashuvchanlik xodimlardan ko‘p qirrali bilim, malaka va tajriba talab etadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar davrida raqobatbardosh turizm sohasi — bu birinchi navbatda raqobatbardosh inson kapitali mavjud bo‘lgan sohadir.

U quyidagi vazifalardan iborat:

- turizm sohasida inson kapitalining nazariy asoslarini yoritish;
- xorijiy tajribalarni tahlil qilish va solishtirish;
- O‘zbekistonda turizm kadrlarini tayyorlash tizimidagi kamchiliklarni aniqlash;
- malakali kadrlar yetishmovchiligining oqibatlarini ko‘rsatish;
- amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu izlanishlar orqali turizm sanoatida inson resurslarining o‘rni va istiqbollari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqr o‘rganiladi.

Turizm sanoati, sohada xizmat ko‘rsatish sifati, innovatsiyalar va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi bevosita inson resurslariga bog‘liq. Inson kapitaliga investitsiya qilish zamonaviy turizm raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqobatbardosh turizm industriyasining orqasida yuqori malakali, kasbiy kompetensiyalarga ega inson resurslari turadi.

Turizm sanoati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari sayyoohlarga vaqtincha yashash uchun qulay sharoit yaratadigan mehmonxona, hostel, mehmon uylari, sanatoriy va boshqa obyektlar;
- Transport xizmatlari sayohatchilarni bir joydan ikkinchi joyga xavfsiz va qulay yetkazib beradigan xizmatlar: aviatsiya, temiryo'l, avtobuslar, avtomobil ijariasi, taksi va boshqa vositalar;
- Ovqatlanish joylari restoranlar, kafe va milliy taomlar uylari turistlarga mahalliy va xalqaro oshxona taomlarini taqdim etadi;
- Ekskursiyalar va gidlik xizmatlari tarixiy, madaniy, tabiiy obidalarga tashriflarni tashkil etish hamda ularni tushuntirib beradigan professional gidlar faoliyati;
- Turizm agentliklari va operatorlari tur paketlarni shakllantiruvchi, sayohatni rejalashtiruvchi, bron qilish va xizmatlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar;
- Ko'ngiliochar xizmatlar muzeylar, teatrlar, festivallar, konsertlar, sport tadbirdari va boshqa dam olish imkoniyatlarini taklif etadigan obyektlar;
- Souvenirlar va boshqa tijorat faoliyatları – milliy hunarmandchilik mahsulotlari, esdalik sovg'alari va boshqa sayyoohlarga mo'ljallangan tovarlar savdosi bilan shug'ullanuvchi kichik biznes tarmoqlari.

Nega bu sanoat deb ataladi?

Chunki, bu soha ko'p sonli ish o'rinalarini yaratadi.

Milliy daromadga salmoqli hissa qo'shamdi. Eksport ekvivalentiga ega (chet ellik turistlar olib kiradigan valyuta sababli).

Turizmga xizmat qiluvchi tarmoqlarning ko'pligiga ko'ra, u kompleks sanoat tizimi hisoblanadi. Jahon sayyoqlik tashkiloti (UNWTO) turizmni strategik rivojlanish yo'nalishi deb baholaydi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Turizm sohasida inson resurslari muammosi global miqyosda keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Inson kapitalining iqtisodiy o'sish va xizmatlar sifatiga ta'siri borasidagi nazariy qarashlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, bu tushuncha zamonaviy turizm kontekstida chuqurroq talqin etilmoqda.

Xorijiy olimlardan Becker inson kapitali nazariyasini ishlab chiqib, uni iqtisodiy o'sishning eng muhim resursi sifatida ko'rsatadi. Navruz-Zoda va Shomiev ham bu nazariyani turizm kontekstida kengaytirgan va inson kapitalining xizmat sifatiga bevosita ta'siri borligini asoslashgan.

Xorijiy olimlar ichida Gari S. Beker inson kapitalining iqtisodiy tizimdagagi o'rnini asoslab, uni raqobatbardoshlikning muhim manbai sifatida ko'rsatgan. U o'z asarida inson salohiyatiga sarmoya kiritish, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik orqali erishiladigan samarani tahlil qilgan [2].

Turizmga oid tadqiqotlarda esa, Navruz-Zoda va Shomiev inson kapitalining xizmatlar sifati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatgan holda, aynan turizm sektori uchun maxsus kasbiy tayyorgarlikning zarurligini ta'kidlaydi.

Ular bu borada Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlaridagi tajribalarni solishtirgan [3].

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda esa inson resurslari masalasi barqaror turizm taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatiladi. Xususan, 2022-yildagi “Tourism and Human Capital Development Report”da yuqori malakali xodimlar ishtirokisiz turizmda innovatsion xizmatlar yaratishning deyarli imkonsizligi ta'kidlangan [4].

Yana bir muhim manba sifatida Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan tayyorlangan “Decent Work in Tourism” hisobotida bu sohada yaratilayotgan ish o'rinalining sifat jihatdan talabga javob bermasligi, ijtimoiy himoya, barqaror bandlik va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining yetarli emasligi ko'rsatilgan. Bu esa, turizmda inson resurslarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi [5].

O'zbekistonlik tadqiqotchi Yoqubov A. o'z izlanishlarida turizm sohasida mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar yetishmovchiligi muammodorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) hisobotlarida ham inson resurslarini rivojlantirish turizm barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'li sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan A. Yoqubov o'z maqolasida mamlakatimizda turizm sohasida kasbiy kadrlar yetishmasligi, mavjud o'quv dasturlarining amaliyotdan uzilganligi, til va servis madaniyati darajasining pastligi kabi muammolarni yoritib bergen [6].

Shuningdek, Sh. Ibragimov xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnat bozori tahliliga asoslanib, turizmda bandlik muammolari va ish kuchi yetishmovchiligining makroiqtisodiy oqibatlarini ko'rsatgan [7].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, turizmda inson resurslarini strategik rivojlantirish, yuqori malakali va moslashuvchan kadrlar tayyorlash, ularni zamonaviy bozor talablariga yo'naltirish global va milliy darajadagi dolzarb masaladir. Mazkur maqola ana shu ilmiy ishlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda turizm xodimlarining sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ular asosida aniq takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola yozishda qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash usullari qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Davlat statistika agentligi, UNWTO va ILO ma'lumotlari asosida turizm sohasida bandlik, ish o'rinali sifati, kadrlar malakasiga doir statistikalar tahlil qilindi. Bundan tashqari, xorijiy tajribalarni o'rganish orqali takliflar shakllantirildi. Ushbu maqolada turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining o'rni va ahamiyatini o'rganish uchun bir qator metodologik yondashuvlar va ilmiy usullar qo'llanildi. Asosiy metodlar sifatida qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv xulosalash usullari tanlandi. Ushbu usullar nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirish hamda tahliliy fikrlashni chuqurlashtirishda samarali bo'lib, mavzuning murakkab jihatlarini kengroq yoritishga imkon berdi.

Induktiv usul yordamida turizm sohasidagi mavjud statistik ma'lumotlardan (masalan, bandlik darajasi, ish o'rirlari sifati, kadrlar malakasi) umumiy xulosalar chiqarildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi va Davlat statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan 2015–2024-yillardagi ma'lumotlar asosiy manba sifatida ishlatildi hamda deduktiv usul bilan mavjud nazariy kontseptsiya va ilgari o'rganilgan ilmiy manbalarga tayanib, yangi ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqishda qo'llanildi. Ushbu usul inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'yicha nazariy asoslarni chuqurroq o'rganishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar

Turizm sohasida inson resurslarini boshqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va amaliy misollaridan keng foydalanildi. Bu xorijiy tajribalar maqola doirasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning amaliy qismida esa O'zbekistondagi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar, kadrlarni tayyorlash markazlari va sohaga oid oliv o'quv yurtlari vakillari bilan intervyu va so'rovnomalari o'tkazildi. Ushbu usullar orqali inson resurslarining amaliy muammolari, malaka darajasi, mehnat sharoitlari hamda rivojlanish istiqbollari yuzasidan to'liq va aniq tasavvur hosil qilindi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi asosida olingan ma'lumotlar turizm sanoatining iqtisodiy samaradorligi va inson resurslarining rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekistonda turizm sohasi bandligi bo'yicha ko'rsatkichlar (2022-2024-yillar)

No	Yil	Band bo'lganlar soni (ming)	Ulardan malakali kadrlar (%)	Ayollar ulushi (%)
1	2022	89.2	37.5	48.1
2	2023	101.4	41.9	49.7
3	2024	113.7	46.2	50.9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, 2024-yil ma'lumotlari.

Tahlildan ko'rindan, turizm sohasida bandlik yildan-yilga ortib bormoqda, ammo malakali kadrlar ulushi hamon past. Bu esa xizmat sifati va turistlar qoniqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribada, masalan, Singapur va Ispaniyada turizm xodimlarining doimiy malaka oshirishi qonun bilan belgilangan bo'lib, bu davlatlarda xizmat sifati yuqoriligini ta'minlaydi. O'zbekistonda ham bu kabi yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

2022–2024-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasida bandlik 89,2 mingdan 113,7 minggacha oshgan, ammo malakali kadrlar ulushi 37,5%dan 46,2%gacha yetgan [2]. Xizmat sifati pastligi turistlar qoniqishiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Singapur va Ispaniyada har 2–3 yilda turizm xodimlarining malaka oshirishi qonun bilan tartibga solingan. Singapurdagi “SkillsFuture” dasturi orqali har bir xodim yillik \$500 subsidiya oladi, bu esa xizmat sifati va mijozlar ishonchiga ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda [1].

Tadqiqot davomida 27 ta turizm tashkiloti va 6 ta OTM bilan intervyular o’tkazildi. So’rovda qatnashganlarning 68 foizi mavjud kadrlar malakasi soha ehtiyojlariga mos emasligini bildirgan, 74 foiz tashkilotda ichki malaka oshirish tizimi mavjud emasligi aniqlangan. Bu esa ILO hisobotida keltirilganidek, ijtimoiy himoya va barqaror bandlik yetishmasligining dalilidir [5].

2024-yilda faqat 12% turizm xodimlari xalqaro sertifikatga ega bo’lib, bu raqam xalqaro raqobatbardoshlik uchun past ko’rsatkich hisoblanadi [6]. Xorijiy tajriba asosida O‘zbekistonda modulga asoslangan ta’lim, xususiy sektor bilan integratsiya va xalqaro standartlarni tatbiq etish zarur.

Xulosa va takliflar

Turizm sohasi barqaror rivojlanishi inson resurslarining sifati bilan bevosita bog’liq. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, ularni turizm sohasining zamonaviy talablariga moslashtirish dolzarbdir. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Turizm kollej va OTMlarida amaliyatga yo’naltirilgan kadrlar tayyorlash dasturlarini joriy etish;

Xodimlarni qayta o’qitish va malaka oshirish bo'yicha sektoriy markazlarni tashkil etish;

Xususiy sektor bilan hamkorlikda turizmda mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qiluvchi treninglar o’tkazish;

Turizm xodimlari uchun xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish.

Turizm sohasi barqaror rivojlanishi inson resurslarining sifati va malakasiga bevosita bog’liqdir. O‘zbekistonda turizm kadrlarini tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, sohaga mos malakali mutaxassislar tayyorlash va mavjud kadrlarning malakasini doimiy oshirib borish hozirgi davr uchun eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Turizm kollej va oliy ta’lim muassasalarida amaliyatga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish zarur. Bu orqali talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko’nikmalarni ham shakllantirib, real ish sharoitlariga tayyorlanadilar;

2. Xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha sektoriy markazlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu markazlar zamonaviy bilim va ko’nikmalarni doimiy yangilab borish, yangi xizmat standartlari va innovatsiyalarni joriy etishda markaziy rol o’ynaydi;

3. Xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, turizmda mehnat unumdarligini oshirishga qaratilgan trening va seminarlar o’tkazish lozim. Bu esa ishchi kuchining samaradorligini oshirishga, shuningdek, yangi ishchi metod va texnologiyalarni 4. Turizm xodimlari uchun xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish keng joriy etishga yordam beradi;

zarur. Bu nafaqat mutaxassislarning malakasini xalqaro standartlarga muvofiq baholash imkonini beradi, balki O’zbekiston turizm sohasining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi;

5. Inson resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, motivatsiya, rag’batlantirish, karyera rivoji va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali sohaga jozibadorlikni oshirish choralari ko’rilishi lozim.

6. Turizm sohasi kadrlarini tayyorlash va rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, masofaviy ta’lim va elektron trening platformalarini joriy etish orqali o’quv jarayoni samaradorligini oshirish mumkin;

7. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turizm kadrlarini tayyorlash sohasidagi ilg’or tajribalarni o’zlashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ta’lim muassasalari bilan doimiy aloqalarni yo’lga qo’yish zarur.

Yuqorida keltirilgan takliflar amalga oshirilsa, O’zbekistonda turizm sanoatining raqobatbardoshligi oshadi, xizmat ko’rsatish sifati yaxshilanadi hamda iqtisodiy o’sishga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Inson resurslarining malakali va motivatsiyalanganligi turizm sektorining barqaror rivojlanishining poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro’yxati

1. UNWTO. Tourism and Human Capital Development Report. 2022.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press, 1964.
4. Navruz-Zoda, S. & Shomiev, A. Turizm sohasida inson kapitalining xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikka ta’siri. 2022.
5. International Labour Organization (ILO). Decent Work in Tourism. Geneva, 2021.
6. Yoqubov, A. O’zbekistonda turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimi va muammolari. 2023.
7. Ibragimov, Sh. Xizmat ko’rsatish sohasida mehnat bozori va bandlik muammolari. 2021.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy maktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz